

TEKNOLOGIYA FANINI INTEGRALLAB O'QITISH ASOSIDA  
YOSHLARNI TABIATGA BO'LGAN MUNOSABATINI  
SHAKLLATIRISHNING BAZI YO'LLARI

*GulDU talabasi, Aziza Ziyodullayeva*

*GulDU talabasi Ovatoy Dōsatova*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada texnologiya fanini integrallab o'qitishning hozirgi fan-texnika taraqqiyoti jadallashgan davrda tabiat bilan jamiyatning o'zaro ta'siri va aloqadorligini muvofiqlashtirish, uyg'unlashtirish jarayonida shunday ekologik muammolar vujudga keldiki, ular davrimizning dolzarb muammosi sifatida talqin qilinadi.

**Kalit sōzlar:** tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologiya, mahalliy, mahsulot, qishloq, namlik, buġlanish, yer, elektr, dielektr, integrallab, innovatsion, suv, ōsimlik, hayron.

Ekologik inqirozning bosh sababchisi tabiiy jarayonlar bo'lsada, ammo ular antropogen omil-inson faoliyati ta'sirida vujudga kelgan. SHu tufayli bu inqirozni sof tabiiy-tarixiy, tadrijiy jarayon sifatida baholash yoki suv yetishmasligiga bog'lab qo'yish yaramaydi. Agar ushbu muammo ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy bilimlarning dialektik birligi asosida tahlil qilinsa, uning hozircha ko'zga tashlanmagan muhim jihati yoshlarda zaruriy ekologik bilim shakllanmaganligida namoyon bo'ladi. SHu nuqtai nazardan mamlakatimizdagi ekologik inqirozni, avvalo "ekologik bilimsizlik" fojiasi deb baholasa to'g'ri bo'lur edi. Zero, har qanday xalqning turmush tarzi ekologik bilimning yaxshi ko'rsatkichidir. Hozirgi bozor sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirish, xalq farovonligi va turmush darajasini yuksaltirish ko'p jihatdan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi samaradorligiga bog'liq.

Biroq ko'pchilik yoshlarda ekologik bilimning yetishmasligi tufayli ishlab chiqarish jarayonida mahalliy-tabiiy xususiyatlar, tabiatni muhofaza qilish qonun-qoidalari e'tiborga olinmagan. Texnikadan qo'pol foydalanish va texnologiya buzilishining atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida deyarli o'ylab ko'rilmagan. Oqibatda qishloq xo'jaligi atrof-muhitga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylanganiki, bu hol mamlakatimiz tabiatida ekologik inqirozlarni sodir qilishga sabab bo'lmoqda:

- haydalma yer maydonining ortib, chorva yaylovining kengayishi natijasida uzoq tadrijiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan tabiiy ekotizm biotsenozlar o'rnida inson tomonidan sun'iy yaratilgan ekotizm-agrobiotsenozlar paydo bo'ldi;

- qo'riq yerlarni o'zlashtirish, to'qaylarni yo'q qilish, ko'llarni ilmiy asossiz quritish ishlari oqibatida namlikning keskin kamayishi kuzatilmoqda;

- yerga noto'g'ri agrotexnik va meliorativ ishlov berish, tabiiy yer qatlamining buzilishi tufayli tuproqlar tarkibi o'zgardi, unumdorligi pasaydi, suv havzalaridan namlikning kamayishiga, havoda chang zarralarining ko'payishiga imkon berdi;

- ekinlarni sug'orish usullari va me'yoriga rioya qilmaslik, dalalarning ortiqcha namlanishi va ikkilamchi sho'rlanishiga, suv isrofgarchiligiga olib keldi;

- ma'danli o'g'itlar va kimyoviy vositalardan me'yoridan ortiqcha foydalanish va ularni ishlatish qoidalariga rioya qilmaslik atrof-muhitning tabiatga yot bo'lgan turli xil moddalar bilan ifloslanishi tirik mavjudotlar hayot faoliyatining buzilishiga sababchi bo'ldi;

- ko'plab yirik chorvachilik va parrandachilik inshootlarining qurilishi atrof-muhitning ishlab chiqarish chiqindilari bilan ifloslanishi imkoniyatlarini oshirdi;

- qishloq xo'jaligi texnikasi va transport vositalaridan nooqilona foydalanish tuproq zichligining ortishiga, namlik saqlash va suv o'tkazuvchanlik xossasining buzilishiga, atrof muhitning yonilg'i-moy qoldiqlari, zaharli gazlar bilan ifloslanishiga olib keldi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tabiatdan oqilona foydalanishning ko'zda tutilgan quyidagi asosiy yo'nalishlari bilan qo'shib olib borgan paytdagina atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini ijobiy hal qilish mumkin:

O'rta umumta'lim maktablarida «ikkilamchi xomashyo» to'plash ishlarini uyushtirish an'anaga aylanib qolgan. O'quvchilar minglab gektar maydondagi o'rmon boyliklarini tejashga imkon beruvchi chiqindi qog'oz va latta-puttallarni to'plash ishlarida, qimmatli dorivor o'simliklarni yig'ish va ko'paytirishda, qora va rangli metallarni to'plashda faollik bilan ishtirok qildilar

Quyida o'z ish tajribalarimizga asoslanib, fizika hodisalaridan «Namlik», «Bug'lanish», «Kapilyar hodisalar» mavzulariga oid materiallar mazmuni bilan tanishtirib o'tamiz.

Tuproq orqali bug'lanadigan suv massasi, avvalo qatlamning suv bug'lari bilan to'yinganligiga va uning kapilyarlik xossalariga bog'liq. Quyi qatlamlarda nam havo qancha ko'p va tuproq tuzilishi qanchalik mayda bo'lsa, bug'lanish jarayoni shunchalik tezlashadi. Zich tuproq yumshatilgan tuproqqa qaraganda suvni ko'proq bug'latadi. SHu sababli sug'orish o'tkazilgandan keyin yerda namlikni uzoqroq saqlab qolish maqsadida uni o'z vaqtida yumshatish, ya'ni kul'tivatsiya qilish kerak.

Suv bilan ta'minlash, xususan, sug'orish ishlari, suvlardan tejamkorlik bilan foydalanilmagan taqdirda ko'ngilsiz oqibatlariga olib kelishi, ya'ni sho'rlangan joylar paydo bo'lishi mumkin. Bu hodisaning mohiyati shundaki, qurg'oqchil iqlim sharoitida yer osti suvlari tarkibida ko'p miqdorda suvda eriydigan sul'fat va xlorid kislota tuzlari bo'ladi. Ekin maydoni namiqtirilib sug'orilganda, minerallashgan yerosti suvlari satxi ko'tariladi va suvda erigan tuzlar tuproqning ustki qatlamiga ko'tariladi.

Biz kuzatishlar davomida shunga amin bo'ldikki, tarbiyaviy ishlar jarayonida o'zbek xalqining yer, suv, o'simlik va hayvonot olamiga munosabatini ifodalagan, ming yillar davomida shakllangan ajoyib rivoyat va xikmatli so'zlardan foydalanish nazardan chetda qolgan. Zero, ota-bobolarimiz yer-suv boyliklaridan ehtiyojiga yarasha foydalanishgan. Ayniqsa, suvga nisbatan tejamkorlik munosabatida bo'lganlar, suvga tupurish, unga biror narsa tashlab, iflos qilish, suvdan noo'rin foydalanish og'ir va kechirilmas gunoh hisoblangan. Endilikda avlodlarimiz o'rtasida bu an'analarni qayta tiklash, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish o'quvchi bilimi saviyasiga va uning shaxsida ekologik bilimning qanchalik darajada tarkib topganligiga bog'liq.

Ushbu tajribalarimiz bilan qishloq joylarida joylashgan maktablarning Texnologiya fanini o'qitish jarayonida doymiy ravishda yuqoridagi ma'lumotlarni berib borishni taqozo etadi, zero kelajagimiz bo'lgan yoshlar Ona zamin xamda uni asrash xaqida ko'proq bilimlarga ega bo'lishga xaqlidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Uzbekistonga tegishli ikkinchi Atpof-myxit xolati sharxining 29-seriyasi. 2010.
2. Umarova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish metodlari. II «Uzluqiz talim», 2004, 5-<sup>4</sup>.
3. N.D. Andreyeva, V.P.Solomin, T.V.Vasilyeva "Teoriya i metodika obucheniya ekologii" oliyoquv yurti talabalari uchun darslik «Akademiya» Nashriyot markazi, 2009. - 208 b.
4. Chuykov Yu.S., Chuykova L.Yu., Sigovatova M.V. "Osnovi ekologicheskix znaniy" (orta maktabning 7-sinf oquvchilari uchun ekologiyadan oquv qollanma). 2-nashr. - Astraxan', 2002. - 212 b.
5. O.U.Xasanboyeva, X.D.Djabborova. «Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi». T., Cholpon 2007 y.
6. H.S Yoldoshev., Sh.M. Avazov. Ekologiya va tabiatni muxofaza qilish asoslari. Oquvqollanma. T.: Mehnat, 2003y.
7. Timofey Chernov. Razmivaniye ponyatiya «ekologiya». Postnauka (10 yanvarya 2019). «V rezultate pod ekologiyey ponimayetsya fundamentalnaya nauka, i oxrana prirodi, i oxrana okrujayushey sredi». Data obrasheniya: 25 marta 2022.
8. M.Muhlibaev, RESULTS OF LABORATORY RESEARCH ON ENVIRONMENTAL CONTENT IN PHYSICS INSTRUCTION IN RELATION TO OCCUPATIONAL EDUCATION You have to send following documents at usovoxaus@gmail.com before 5 th October 2022